

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinislo Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



NAMANGAN VILOYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY FAOLLIGI KO'RSATKICHLARI DINAMIKASINI TAHLIL QILISH

Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda mehnat bozorida yoshlarning iqtisodiy faolligi, xususan, Namangan viloyatida yoshlar bandligini ta'minlash masalalari, ularning iqtisodiy faolligini ta'minlash ko'rsatkichlarining dinamikasi to'g'risida bayon qilingan. Viloyatda yoshlarning ish bilan bandlik holati tahlil qilinib, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda mehnat faolligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashning asosiy muammolarini o'rganish asosida, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, bandlik, mehnat bozori, kichik biznes, tadbirkorlik, qadriyat, iqtisodiy faollik, ishsizlik.

Abstract: This scientific article describes the economic activity of youth in the labor market today, the features of ensuring employment for youth in the Namangan region, and the dynamics of indicators for ensuring their economic activity. The state of youth employment in the region is analyzed, the factors influencing the increase in the standard of living of the population and changes in labor activity are studied. Based on a study of the main problems of youth employment, proposals and recommendations have been developed.

Key words: youth, employment, labor market, small business, entrepreneurship, cost, economic activity, unemployment.

Аннотация: В данной научной статье описывается экономическая активность молодежи сегодняшний день на рынке труда, особенности обеспечения занятости молодежи Наманганской области, динамика показателей обеспечения ее экономической активности. Проанализировано состояние занятости молодежи в регионе, изучены факторы, влияющие на повышение уровня жизни населения и изменение трудовой активности. На основе изучения основных проблем занятости молодежи разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: молодежь, занятость, рынок труда, малый бизнес, предпринимательство, стоимость, экономическая активность, безработица.

KIRISH

Namangan viloyati iqtisodiyotida ijobiy tendensiyalar mavjud bo'lib, ular shubhasiz to'g'ri asosga ega. Namangan viloyati iqtisodiyotining ko'plab sohalarida o'zgarishlar ro'y bermoqda, bu esa viloyatda bozor mexanizmlarini faol ishlayotganligidan dalolatdir. Iqtisodiy rivojlanish jarayoni barqaror bo'lishi va uning har bir bosqichida aniq natijalarga erishish mumkin bo'lishi uchun, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, aholining turmush darajasini oshirish, aholi soni, malakali ishchi kuchining chiqib ketishining qisqarishi kabi ko'plab muhim omillarni hisobga olish kerak. Ular orasida mehnat bozori bilan bog'liq markaziy omillar mavjud bo'lib, Namangan viloyatida so'nggi besh yil ichida mehnat bozori katta o'zgarishlarga duch keldi. Bu, birinchi navbatda, viloyatda ko'pgina yangi korxonalarni ishga tushirilishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishi orqali izohlanadi. Namangan viloyatida fuqarolarining turmush darajasini yaxshilanishi, aholining mehnat faolligining o'zgarishiga olib keldi. Natijada, mehnat migratsiyasi sezilarli darajada oshdi, ishchi kuchi viloyatda talab topa olmay, ommaviy ravishda xorijiy davlatlarda mehnat qila boshlashdi.

Shuningdek, viloyatda dunyoning boshqa mamlakatlari kabi mehnat bozorida ba'zi rivojlanish tendensiyalari doimiy ravishda boshqalarini o'zgartirdi, eski kasblar yo'qolib, yangi kasblar paydo bo'ldi. Jahon iqtisodiy tendensiyalarining o'zaro ta'sirisiz alohida mamlakat iqtisodiyotining mavjudligi mumkin emas. Shu bois, Namangan viloyati mehnat bozoridagi tendensiyalar ham har doim qisman global tendensiyalarga, to'g'ri keladi, chunki jahon iqtisodiyoti integratsiyasi jarayonlari allaqachon boshlangan va mamlakatimizni nafaqat qo'shni davlatlar muhitining iqtisodiy maydoniga, balki halqaro muhit makoniga ham ishonchli tarzda olib bormoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat taklifi birinchi navbatda tug'ilish darajasi, mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'ati, jins-yosh tarkibi kabi demografik omillar bilan belgilanadi ^[1]. Bozor dinamikasida demografik omildan tashqari, mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faollik darajasi, birinchi navbatda, yoshlar iqtisodiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va bu jarayonlardagi o'zgarishlarning asosiy omili sifatida muhim omil hisoblanadi. Namangan viloyatidagi mehnat bozorining bugungi holatini ijobiy sifatda tavsiflanmaydi. Bu esa iqtisodiy faoliyatning aksariyat qismiga va bozor segmentlariga ta'sir ko'rsatdi.

Mehnat bozorini rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi yetakchi tadqiqotchilar so'nggi yillarda ro'y bergan bir qator tendensiyalarni ajratib ko'rsatishadi ^[2].

MAVZUNING METODOLOGIYASI

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining juda katta qismini tashkil qilayotgan yoshlarning ish bilan faol bandligini ta'minlash, bu borada ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yoshlarning biznes g'oyalarini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligi, uni qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va faol bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotda mamlakatimizda, xususan, Namangan viloyatida yoshlarning bandlik masalalari, ularning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari o'rganilgan hamda ko'rsatkichlar dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Hozirgi kunda insoniy qadriyatlar o'zgarmoqda va endi bu jarayon juda tez bo'lishi mumkin. Insoniy qadriyatlar yo'nalishlarining iqtisodiy faoliyatga sezilarli ta'siri sharoitida bunday o'zgarishlarni prognoz qilish Namangan viloyatining bugungi iqtisodiy siyosatining maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Iqtisodiy hayotda mehnat bozori dinamikasiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, ular ishchi kuchi taklifiga ham, unga bo'lgan talabga ham ta'sir qiladi.

Iqtisodiy faoliyat va mehnat bozori sohasidagi asosiy tendensiyalar orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak:

- Namangan viloyati mehnat bozorining tarkibiy nosimmetrikligi, xususan, ish beruvchilarning mehnat sharoitlaridagi o'zgarishlarga moslashish mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti bilan bog'liqligi;
- iqtisodiy vaziyat, ya'ni doimiy xodimlarni ishdan bo'shatishni tartibga solish qismidagi mehnat qonunchiligining qat'iyligi;
- mehnatga haq to'lashning moslashuvchanligi (kechikishlar) tufayli yetarli darajada barqaror bandlikni ta'minlash bilan izohlanadigan bandlikni saqlashga qarshilik;
- ish haqini to'lashda, uning past darajasi va ish vaqtining davomiyligi, shuningdek, mehnat amaliyotining sezilarli darajada soyalanishi.

Shu bilan birga, nosimmetrikliliklar ishchi kuchi taklifining demografik tuzilishi, ish bilan ta'minlanish sifati, kasbiy malaka tuzilmasi, ishchi kuchining harakatchanligi, unumdorlik va mehnatga haq to'lash muvozanati, bandlikni shakllantirish hamda mehnatga bo'lgan rag'batlantirishning pasayishiga olib kelgan holda, yoshlarda tashqi mehnat migratsiyasini rag'batlantirgan ishchi kuchining arzonligida namoyon bo'ladi ^[3].

Yoshlarni ish bilan ta'minlashning asosiy muammosi - bu yuqori sifatli kasbiy malakaga ega bo'lsa ham, ular ko'pincha yetishmaydigan ish tajribasining qadriyatini ortiqcha baholashdir. Bu borada, O.Grishnova va I.Gradoviylar "Yoshlarni ish bilan ta'minlash paytida kamsitish Yevropa mamlakatlarida o'rtacha 30% hollarda sodir bo'ladi" - deb ta'kidlaydilar. Aholining iqtisodiy faolligi darajasi iqtisodiy tizimlarda bandlikning muhim omili hisoblanadi.


Iqtisodiy faollik darajasini baholashda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlardan foydalanildi.

1. **Ishlab chiqarish faolligi** – hududda sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qurilish ishlari, xizmat ko'rsatish va chakana savdo aylanmasi hajmlaridagi o'sish sur'atlarini ifodalaydigan 5 ta ko'rsatkich.
2. **Tadbirkorlik faolligi** – faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari, yangi tashkil etilgan va faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'atlari, faoliyat yuritmayotgan va faoliyati ixtiyoriy

tugatish jarayonidagi kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tgan jami kichik biznes subyektlari sonidagi ulushini ifodalaydigan 5 ta ko'rsatkich.

3. **Tashqi savdo faolligi** – tovar va xizmatlar eksport-import hajmlarining o'sish sur'atlarini ifodalaydigan 2 ta ko'rsatkich.

Iqtisodiy faollik darajasini hisoblashda nisbiy farqlar va o'zaro taqqoslash uslublaridan foydalanildi va iqtisodiy faollik darajasi ko'rsatkichi integral indeksda ifodalandi. Bunda, "0"dan "1"ga qadriyatga ega bo'lgan integral indeks qancha "1"ga yaqin bo'lsa, joriy faollik darajasi shuncha yuqoriligini anglatadi va aksincha, mamlakat mehnat bozori faoliyatidagi turg'unlik tendensiyalaridan dalolat beradi, shuning uchun uni faollashtirish uchun tartibga soluvchi ta'sir zarur. Iqtisodiy faollikning nisbatan yuqori darajasi Toshkent shahri, Jizzax, Namangan, Andijon, Xorazm viloyatlarida (IFD indeksi 0,500 dan yuqori) qayd etildi. Shundan foydalangan holda Namangan viloyatining 2010–2023-yillarda iqtisodiy faollik darajasini ko'rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm: 2010–2023-yillarda YAIM o'sish sur'atlarining qiyosiy dinamikasi va Namangan viloyati aholisining iqtisodiy faolligi, %

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, 2010–2023-yillar uchun YAHM o'sish sur'atlari va iqtisodiy faollik darajasi ko'rsatkichlarini taqqoslaganda, YAHM o'sishi IFD darajasining mos ravishda o'sishi bilan birga keladi. Bundan ko'rinadiki, mamlakat YAIM va IFD darajasi o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi taxmin nazariy va statistik asosga ega deb hisoblaymiz.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash, shuningdek, tadqiqotda olingan ma'lumotlar va statistik ma'lumotlar o'rtasidagi qonuniyatlarni aniqlash uchun tegishli statistik ma'lumotlarning katta massivlariga ega manbalardan foydalanish kerak. Namangan viloyati statistika boshqarmasining mehnat bozori bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash bo'yicha hisobotida ta'kidlanganidek, iqtisodiy faoliyat bo'yicha aholini tanlama so'rovini o'tkazishdan maqsad ishchi kuchining tarkibi va tuzilishi, o'lchovi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish orqali aholi bandligi miqdori va faoliyat sohalari, shuningdek ishsizlik darajasini aniqlanadi. Namangan viloyati statistika boshqarmasining barcha ma'lumotlari ochiq va tahliliy maqsadlarda foydalanish mumkin, shuning uchun biz Namangan viloyati mehnat bozori haqidagi statistik hisobot ma'lumotlarini tahlil qilamiz va ularni bandlikka ko'maklashish markazi (BKM) ma'lumotlari bilan to'ldiramiz.

Namangan viloyatidagi yoshlarning bandligi va ishsizligi holati bo'yicha agar viloyat mehnat bozorini, uning bandlik darajasi va ishsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning dinamikasi mehnat bozorining nomutanosibligini va uning rivojlanishining notekis jarayonlarini ko'rsatadi.

Namangan viloyati aholisining iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bandlik ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari ularning pasayishini va ishsizlik ko'rsatkichlari - o'sishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, xuddi shu davrda Rivojlangan davlatlarning aksariyat mamlakatlari aholi bandligi sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishdi. Ushbu tendensiyalar iqtisodiy rivojlanish va mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mehnat bozori ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'nalishida iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarini rivojlantirish tendensiyalarini o'zgartirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.



Namangan viloyati mehnat bozorining o'ziga xos segmenti – bu o'ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ega bo'lgan va muayyan tadqiqot va tartibga solish vositalaridan foydalanishni talab qiladigan yoshlar segmenti. Viloyatda ishlaydigan aholining eng faol qatlamini yoshlar tashkil etadi, deb taxmin qilish mumkin. Mehnat bozorining eng muhim va ayni paytda muammoli tarkibiy qismlaridan biri uning iqtisodiyot, ta'lim hamda mehnat bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aks ettiruvchi yoshlar segmentidir.

Bu borada bizningcha, "Yoshlar mehnat bozori – mehnat bozorining bir qismi bo'lib, u 14 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrda mehnat faoliyatini boshlagan davlat, tadbirkorlar va yosh fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari majmuasidir" – deb ta'rif berish o'rinli. Yoshlar mehnat bozorining muhim xususiyati shundaki, u yanada zamonaviylashib, umumiy mehnat bozori salohiyatini sifat jihatidan yangilaydi va shu orqali ijtimoiy taraqqiyotning muhim innovasion omillaridan biriga aylanadi.

Yoshlar mehnat bozorini ko'rib chiqishning asosiy predmeti "yoshlar" tushunchasi maxsus ijtimoiy-demografik guruhdir ^[6]. Bundan ko'rinadiki, yoshlar mehnat bozori rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalariga ega. Yoshlar bandligining bosqichma-bosqich qisqarishi, birinchi ishga joylashishdagi qiyinchiliklar, ta'lim darajasi va sifatining kasbiy burchlariga mos kelmasligi, ish tajribasining yo'qligi, yoshlar talablari va ish beruvchilar takliflarining mos kelmasligi mehnat bozoridagi keskinlikni kuchaytirmoqda.

Yoshlar mehnat bozori ancha istiqbolli bo'lishi bilan bir qatorda, yoshlar bandligining mavjud muammolari ishsizlikning ko'payishi, turmush darajasining pasayishi, passiv, tartibga solinmagan va buzg'unchi xatti-harakatlarning tarqalishi tashqi mehnat migratsiyasining kuchayishi, mehnat motivatsiyasining yo'qolishiga olib keladigan psixologik o'zgarishlar, qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishi kabi ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Shu bois, respublikamizda oila va yoshlar siyosati davlat institutining mehnat bozorida yoshlarning xulq-atvorini o'rganish, ularning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish imkoniyatlarini izlash muhimligi ta'kidlangan ma'ruzasida: "Jamiyatda innovasion salohiyat tashuvchisi sifatida yoshlar mamlakatning mehnatga layoqatli aholisining yarmidan ko'pini va mehnat bozorining maxsus kontingentini tashkil qilishi, bu bozorning boshqa ishtirokchilaridan sezilarli darajada farq qilishi" to'g'risida ta'kidlangan. Bu esa o'z navbatida, yoshlar ko'proq bilimli, harakatchan, tashabbuskor, ochiq va o'zgarishlarga, ish qidirishga tayyorligi hamda ular yangi bilim, kasb va texnologiyalarga ega, intellektual salohiyat tashuvchisi, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatiga ega ekanligini ifoda etadi.

Boshqa tomondan, yoshlar ta'lim darajasi, kasb tanlash, ta'lim muassasasida muayyan kasbni egallash, ishga kirishish, ish yo'nalishini tanlash jarayonida o'z kasbini qurish bilan bog'liq ma'lum kasb va kasbiy o'sish doirasida ijtimoiy muammolarga duch keladi. Mehnat bozoriga kirgan yoshlar, qoida tariqasida, kasbiy tayyorligi va tegishli ish tajribasiga ega emasligini ham ko'rsatadi. Bu borada, zamonaviy mehnat bozoridagi keskin raqobat sharoitida yoshlar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanligini isbotlay olishi kerak.

Shu sababli davlat oldida mehnat bozorining yoshlar segmentini davlat tomonidan tartibga solishning shunday mexanizmini shakllantirish vazifasi turibdi, bu esa: manfaatdor tomonlarning (davlat boshqaruvi organlari, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari, ish beruvchilar va yoshlar) yoshlarning ishsizligi va mehnat bozoridagi kasbiy malaka nomutanosibligi muammosini hal qilish; kasbiy o'zini o'zi belgilash va yoshlarni rivojlantirish; birinchi kasbiy tajribaga ega bo'lish va ish bilan ta'minlashning samarali shakllarini topish; yoshlarning stajirovka o'tashi, amaliyot o'tashi va birinchi ish joyiga joylashishi uchun sharoitlarni yaxshilash; yoshlarning yuqori samarali faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish kabi har tomonlama o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bandlik va bandlikni ta'minlash sohasidagi yoshlar siyosati aholining ushbu muayyan yosh toifasining o'ziga xos xususiyatlarini, hududiy mehnat bozorlarining o'ziga xos xususiyatlarini, ish beruvchi va yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini shakllantirish va amal qilishning murakkabligini hisobga olishi kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, mehnat bozorining yoshlar segmenti nafaqat umumiy mehnat bozori salohiyatini sifat jihatidan yangilaydi, balki umumiy mehnat bozorining eng muammoli tarkibiy qismidir. Yoshlarning mehnat bozoridagi harakatchanligi o'zining turli ko'rinishlarida, bizning fikrimizcha, mehnat bozorining beqarorligi va muammoli faoliyatining elementidir.

Yoshlar ham iqtisodiy jarayonlarning drayveriga aylanishi, ham butun iqtisodiyotning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Ushbu faoliyat jarayonini tartibga solish iqtisodiy dasturlarni uzoq muddatli prognozlash, investorlarning iqtisodiyotga ishonch darajasini oshirish, mehnat bozori hajmini oshirish, raqobatbardosh yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi, ishsizlik darajasini pasaytirish uchun nihoyatda zarurdir. Yoshlar vakillari davlat an'analari, ijtimoiy-huquqiy normalarining vorislari sifatida ma'lum sharoitlarda eng faol ijtimoiy guruhlardan biri bo'lib, ichki davlat siyosati, ijtimoiy-ishlab chiqarish faoliyati, davlatning iqtisodiy rivojlanishida yetakchi bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории / науч. ред. Р. И. Капелюшников. Москва. 2003. 672 с.
2. Кабаченко Г. С. Регулювання ринку праці в умовах трансформації структури зайнятості: дисертація кандидата економічних наук: 08.00.07. Вінниця. 2017. 247 с.; Базалийская Н. П., Бец Ю. О. Экономическая активность населения как фактор использования трудового потенциала общества Приазовский Экономический вестник. 2017. Выпуск 5(05). С. 235-241.; Близнец В. В., Яценко Л.Д. Отечественный рынок труда в глобальном измерении. Рынок труда и занятости населения. 2018. №3(56). С. 18-23.
3. International Labor Organization. URL: <https://www.ilo.org> (date application: 20.12.2019).
4. Назарова Г.В., Касьямин Д.С. Методический подход к оценке состояния рынке труда молодежи. Экономика и организация управления. Симферополь. 2016. Вып. 1 (21). С. 150-159.
5. Grishnova O., Gradovy I. Assessment of age discrimination in the labor market of Ukraine. Ukraine: aspects of work. 2018. No. 1. P. 3-9.
6. Шапка О. В. Проблемы трудоустройства молодежи в современных условиях. Актуальные проблемы права: теория и практика 2013. № 26. С. 593-600.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.